

“ILMIY TAFAKKUR VA ZAMONAVIY TADQIQOTLAR: MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY KONFERENSIYASI
Qabul qilindi: 21-noyabr 2026-yil • Ma’qullandi: 23-noyabr 2026-yil • Nashr qilindi: 25-noyabr 2026-yil

RAQAMLI KOMMUNIKATSIYA SHAROITIDA ZAMONAVIY FRANSUZ NUTQIY ETIKETINING O‘ZGARISHI

Muhrullajonova Mahbuba
Andijon davlat chet tillari instituti, Roman-german va slavyan tillari fakulteti, 102-guruh talabasi
Xasanboyeva Nafiza Olimjonovna
Ilmiy rahbar

Annotatsiya: Ushbu tezisda raqamli kommunikatsiya sharoitida zamonaviy fransuz nutqiy etiketining lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Elektron muloqotda salomlashish, murojaat qilish, minnatdorchilik bildirish va xayrlashish klishelarining soddalashuvi, ijtimoiy masofa Tu hamda Vous olmoshlarining namoyon bo‘lish shakllari o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari raqamli muhit an’anaviy xushmuomalalik me’yorlarini inkor etmasdan, balki ularni tezkor muloqot talablariga moslashtirayotganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: raqamli kommunikatsiya, nutqiy etiket, pragmatika, netiket, norasmiy va samimiy shakllar, affektiv vosita, mimika,grafik qisqarish, hissiy belgilar.

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi insonlar o‘rtasidagi muloqot shakllarini tubdan o‘zgartirmoqda. Internet, elektron pochta va messenjerlar (WhatsApp, Telegram, Instagram) kundalik hayotning ajralmas qismiga aylanib, tilning nafaqat leksik-grammatik tuzilishiga, balki nutqiy etiket me’yorlariga ham kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda [3]. Fransuz tilshunosligida nutqiy etiket ijtimoiy rollarni tartibga soluvchi va suhbatdoshlar o‘rtasidagi munosabatlarni boshqaruvchi muhim pragmatik hodisa sifatida qaraladi [2]. Raqamli muhitda muloqotning tezkorligi va yozma-og‘zaki shakllarning uyg‘unlashuvi natijasida an’anaviy xushmuomalalik formulalari yangi kommunikativ vazifalarni bajara boshladi.

Muloqotning boshlang‘ich fazasida, ya’ni aloqa o‘rnatish bosqichida salomlashish va

murojaat klishelari suhbatdoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy masofani belgilab beradi [2]. An’anaviy fransuz muloqotida Bonjour va Bonsoir birliklari universal rasmiy me’yor hisoblansa, raqamli yozishmalarda ularning o‘rnini norasmiy va samimiy shakllar egallamoqda. Shuningdek, fransuz tilidagi Tu va Vous olmoshlari asosiy pragmatik markerlar sifatida elektron muloqotda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolgan:

— Coucou Marie ! Ça va ? Tu viens ce soir ? — Salut Léa ! Oui, bien sûr, à tout à l’heure ![11]

Ushbu mikro-dialogda Coucou! va Salut! salomlashish klishelari Tu olmoshi bilan uyg‘unlashib, suhbatdoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy masofa qisqa ekanligini va do‘stona muhitni namoyon etadi. Coucou! birligi yozma chatda og‘zaki nutqqa xos iliqlikni yetkazish uchun qo‘llanilgan. Yakundagi à tout à l’heure esa aloqaning qisqa muddatga uzilayotganini bildiradi.

— Bonjour Monsieur Dupont, je vous envoie le document demandé. Bien cordialement, Sophie.[11]

Mazkur rasmiy elektron pochta namunasida esa an’anaviy nutqiy etiket qoidalari qat’iy saqlangan [4]. - Bonjour Monsieur Dupont murojaati va vous olmoshi rasmiy masofa hamda hurmatni ifodalasa, Bien cordialement yakuniy klishesi muloqotni ijobiy va professional ohangda yakunlash funksiyasini bajaradi.

Raqamli kommunikatsiyaning yana bir o‘ziga xos pragmatik xususiyati , bi vaqt va makon tejamkorligi tufayli etiket birliklarining grafik qisqarishi (abréviations) hamda hissiy belgilar, yaniy emojilar bilan boyishidir [7]:

Misol uchun, Coucou Marie ! 😊 Ça va ? Tu viens ce soir ? 🎉 — Salut Léa ! 😍 Oui, bien sûr ! 👍 À tout à l’heure ! 👋💕 kabi etiket birliklari raqamli muloqotda salomlashish, suhbatni boshlash, ijobiy munosabat bildirish va xayrlashish vazifalarini bajarsa,ushbu birliklar bilan birga qo‘llangan 😊, 🎉, 😍, 👍 va 👋💕 emojilari esa suhbat ishtirokchilarining hissiy holati, samimiy munosabati va kommunikativ niyatini ifodalashga xizmat qiladi.Xususan, 😊 va 😍 emojilari ijobiy hissiy munosabatni, 🎉 quvonch va xursandchilikni, 👍 rozilikni, 👋💕 esa samimiy xayrlashuvni anglatadi. Shu jihatdan emojilar yuzma-yuz muloqotdagi mimika va imo-ishoralarning ayrim pragmatik

vazifalarini bajarib, yozma xabarning hissiy ta’sirchanligini kuchaytiradi.

Bundan tashqari, — Tu peux m’envoyer le cours stp ? — Voilà, c’est fait ! — Merci bcp 🙏 À plus ![11] misolidagi stp (s’il te plaît) va bcp (beaucoup) kabi grafik qisqartmalar xabarni ixchamlashtiradi va pragmatik jihatdan iltimosni yumshatish va minnatdorchilik bildirish vazifasini saqlab qolgan raqamli kodga aylangan. Shu bilan birga, minnatdorchilikdan so‘ng qo‘yilgan emoji belgisi (🙏) yuzma-yuz muloqotdagi mimika va ohang o‘rnini bosuvchi affektiv vosita sifatida xizmat qilmoqda. Yakuniy «À plus !» (À plus tard) klishesi esa noaniq kelajakka yo‘naltirib, suhbatni yengil yakunlaydi.

Shuningdek, zamonaviy fransuz raqamli muloqotida «netiket» yaniy, tarmoq odobi tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi [3]. Matnni to‘liq bosh harflarda yozmaslik va kechki payt bezovta qilmaslik hamda xabarlarga o‘z vaqtida javob qaytarish zamonaviy fransuz kommunikativ madaniyatining muhim talablariga aylangan.

Xulosa qilib aytganda, raqamli kommunikatsiya sharoitida zamonaviy fransuz nutqiy etiketi shakliy o‘zgarishlarga uchrab, qisqartmalar, norasmiy salomlashish birliklari va emojilar hisobiga boyimoqda. Biroq pragmatik nuqtayi nazardan shaxs Tu va Vous olmoshlari hamda à tout à l’heure, à plus kabi nutq birliklari, suhbatdoshning ijtimoiy mavqeyini hisobga olish va hurmat ko‘rsatish tamoyillarini o‘z ichiga oladi. Shu bois fransuz tilini o‘rganuvchilarda nafaqat an’anaviy adabiy til me’yorlarini, balki zamonaviy raqamli etiket va netiket qoidalarini ham shakllantirish bugungi kunning muhim lingvodidaktik vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Brown, P., Levinson, S. C. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 345 p.

2. Kerbrat-Orecchioni, C. Les interactions verbales. Tome I. – Paris: Armand Colin, 1990. – 318 p.

3. Crystal, D. Language and the Internet. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – 304 p.

4. Claudel, C. Ways of Expressing Apologies and Thanks in French and Japanese Personal Emails // RUDN Journal of Linguistics. – 2015. – No. 4. – P. 85–102.

5. Nazarova, Sh. Nutq etiketi birliklarining ilmiy-nazariy aspektlari // O‘zbekiston ilmiy jurnallar platformasi (ToshDO‘TAU tadqiqotlari). – Toshkent, 2023.

6. Xasanboyeva N.O. Fransuz tilida hayrlashuv klishelarining deiktik-pragmatik xususiyatlar.O‘zbekiston ta’lim tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuvlar.Muammo va yechimlar mavzusida Respublika ilmiy konferensiya. 2025,- B.10-15.

https://www.cambridge.org/core/books/language-and-the-internet/25A063BB182BF1582C6876B83DDCEE7A — Cambridge Core (Kembrij universiteti elektron kutubxonasi)

7. https://www.persee.fr/doc/igram_0222-9838_1992_num_55_1_3191_t1_0059_0000_3 — Persée (Fransiya ilmiy nashrlar portali)

8. https://journals.rudn.ru/linguistics/article/view/9263 — RUDN Journal of Linguistics (Xalqaro tilshunoslik jurnali)

9. https://zenodo.org/records/15073115 — Zenodo (O‘zbekiston tadqiqotchilari ilmiy repozitoriysi)

10. https://www.in-academy.uz/index.php/ZDIF/article/view/58536 — In-Academy.uz (O‘zbekiston ilmiy konferensiyalar portali)

11. https://langue-francaise.tv5monde.com — TV5MONDE: Langue française (Fransuz tili xalqaro portali)

